

FAZOVIIY TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI

*Matabgacha ta'lim yo'nalishi oqituvchisi mehnat faxriysi
Xolmirzayev Nomoz Nazirovich
DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari
Abduraimova Mohichehra Jo'ra qizi
Rahmonova Mavluda Sheraliyevna*

Аnnotatsiya

Ushbu maqolada bolalarda fazoda mo'ljal olishni rivojlantirish, idrok qilish, bolalarning tevarak-atrofdagi fazoda mo'ljal olishni o'zlashtirishi, ko'rib idrok qilishi, o'lchash asosida masofani aniqlash, fazoni idrok qilish va fazoda mo'ljal olishda so'zning roli, fazoviy kategoriyalar fazoning joylashuv o'rnini haqidagi fikr va mulohazalar keng yoritilgan.

Абстрактный

В данной статье рассматривается развитие и восприятие пространственной ориентации у детей, приобретение детьми пространственной ориентации, зрительное восприятие, определение расстояния на основе измерения, пространственное восприятие и пространственная ориентация. Роль з, пространственные категории, мысли и мнения о расположении пространства широко освещены.

Abstract

This article discusses the development and perception of spatial targeting in children, children's acquisition of spatial targeting, visual perception, distance determination based on measurement, spatial perception and spatial targeting. The role of z, spatial categories, thoughts and opinions about the location of space are widely covered.

Kalit so'zlar: fazoviy tasavvurlar, fazoviy kategoriya, fazoviy idrok, fazoviy jismlar, fazoviy yo'nalish, fazoviy joylashuv, elementlar tasavvurlar.

Insonning fazoda mo'ljal olish muammosi keng va ko'p qirrali. Fazoda farqlash va fazoni idrok qilish, fazoviy tasavvurlar va har xil fazoviy munosabatlarni, masalan, obyektlarni shaklini o'lchami, fazoviy yo'nalishlari, fazoda joylashgan o'rnini, hajmi, bo'yi, eni, balandliklari kabi masofalarning hammasi har xil fazoviy kategoriyalardir. Ularni idrok qilish va ular haqidagi tasavvurlar fazoviy idrok-tasavvur qilishdir.

Professor V.S.Sverdlovning tavsifi bo'yicha, fazoda mo'ljal olish fazoviy idrok va tasavvurlarning amaliy ifodasidir. Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda bolalarning o'z gavda qismlarini aniq farq qilishi va o'ziga nisbatan tomonlarni aniqlashga asos

bo'lib xizmat qiladi. Masalan: oldinda deganda bola o'zining yuz tomonni, orqada (orqadan) deganda o'z gavdasining orqa tomonini tushunadi. Bolalarga ayni bir vaqtda o'zaro qarama-qarshi juft yo'nalishlarni ,ya'ni yuqorida –pastda, oldinda-orqada ,chapda-o'ngda (chap-o'ng), degan tasavvurlarni farq qilish mashq qildiriladi, chunki bolada ularning biri haqida tasavvur hosil qilish ikkinchisi haqidagi tasavvurlarni shakllanishiga tayanadi. Bolada fazoda mo'ljal olishni orgatish uchun maxsus mashqlar bilan bir qatorda, turli xil hayotiy vaziyatlardan ham keng foydalanadi. Fazoviy yo'nalishlarda mo'ljal olish har qanday amaliy harakatning zaruriy komponentidir. Tegishli mashqlar uchun fizkultura va musiqa mashg'ulotlari, ertalabki gimnastika va harakatli o'yinlar katta imkoniyat yaratadi. Fazoda aniq mo'ljal qila bilish harakatli mashqlarni to'g'ri bajarishni ta'minlaydi. Pedagog harakat yo'nalishini doimo ko'rsatib turadi: Chapga (o'ngga) buriling, yuqoriga ko'tariling! va hokazo. <<Bolajon>> dasturining Tevarak-atrofdagi mo'ljal olish bo'limiga mos ravishda tarbiyachi bolalarga o'ziga nisbatan yo'nalishni aniqlashni ,berilgan yo'nalishda harakat qilishni o'ziga nisbatan buyumlarning xolatini so'zlar bilan tushuntiradi. Talabalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish va u bilan bog'liq bo'lgan malakani oshirish grafik faoliyatning eng muhim tarkibiy qismidir. Zero, hech bir o'quv fani fazoviy tasavvur va fazoviy farazni chizmachilikday rivojlantirmaydi. Ilmiy metodik adabiyotlarda fazoviy tasavvur, fazoviy faraz, fazoviy tushuncha, fazoviy tafakkur kabi so'zlarni ko'p uchratish mumkin. Ammo bu so'zlar mazmuniga ko'ra xil mohiyat kasb etadi, chunki tasavvur tafakkurdan , tafakkur esa tushunchadan keskin farq etadi. Chizmachilik darslarida bu atamalarni qo'llashda proyeksiyani qurish bilan narsaning fazoviy qiyofasini tasavvur etishni tushunamiz. Buyumlar va ularning fazoviy munosabat va xususiyatlarini anglatish bilan bog'liq bo'lgan bu tushunchalar talabalarda tasodifan sodir bolmay , balki grafik savodni o'rgatish jarayonida chizmachilik oqituvchining ko'magi yordamida hosil boladi. Fazoviy tasavvur real obyekt yoki model asosida u haqida sezgi organlari orqali kelib tushuvchi ma'lumotlarni tahlil qilish , idrok etish natijasida olingan bilimlar birliklari va ularning obrazlaridir. Tasavurning chuqurligi idrokning yaxlitligi , ya'ni obyektning yaxlitligicha ko'rish hamda uning tuzilmasini , elementlari orasidagi aloqadorlikni , boshqa obyekt bilan ozaro munosabatlarini aniqlash , u yoki bu figuraning hosil bo'lish usulini tushunish , uning keyingi harakatini oldindan ko'ra bilib qobiyatlarini belgilaydi. Fazoviy tasavvurlarning barqarorligi dastlab yaratilgan obrazning ko'rgazmali asosini inobatga olgan holda obraz ustida amallar bajarishda erkinlik darajasi bilan belgilanadi. Bu erkinlik yaqqollikning bir ko'rinishdan boshqasiga o'tishda uning mazmunini o'ziga asosida saqlab qolgan, obyektga o'zgarishlarni qayd etish, fazoviy obekt obrazini tahlil qila olish malakasida namayon bo'ladi. Fazoviy tasavvurlarni to'liqligi fazoviy obrazning tarkibiy tuzilmasi, ya'ni elementar to'plami, ular orasidagi aloqadorlik, ularnik dinamik nisbatini ongimizda

erkin harakat qilish bilan belgilanadi. Hosil qilingan obrazda nafaqat obyektning tarkibiy tuzilmasiga, ya'ni elementar balki uning fazoviy ham aks ettiriladi. Shunda ongimizda hosil qilingan geometrik obyektlar obrazida ilmning shakli, kattaligi, uning boshqa obyektlarga nisbatan yoki uning ismlarning bir-biriga nisbatan o'zaro joylashuvi haqidagi tasavvurlar o'z ifodasini topadi. Fazoviy tasavvurning dastlab yaratilgan obrazning ko'rgazmali asosini inobatga olgan holda obraz ustida amallar yaratishda erkinlik darajasi bilan belgilanadi. Bu erkinlik yaqqollikning bir ko'rinishidan boshqasiga o'tishda, uning mazmunini o'ziga xos tarzda saqlab qolgan holda, obyektga o'zgarishlarni qayd qilish, fazoviy obraz malakasida namayon bo'ladi. Geometrik shakllarning turli xil shakllarini solishtirish, tahlil qila olish sintezlash malakalarini egallash fazoviy tasavvurning o'sishiga yordam beradi. Fazoviy tasavvurlarning to'liqligi fazoviy obrazning tarkibiy tuzilmasi, ya'ni elementlar to'plami, ular orasidagi aloqadorlik, ularning dinamik nisbatini ongimizda erkin ifoda etish bilan karakterlanadi. Hosil qilingan obrazga nafaqat obektning tarkibiy tuzilmasiga ega qismlardir. Shunda ongimizda hosil qilingan geometrik obektlar obrazida ilmning shakli, kattaligi va boshqa obektlariga nisbatan ismlarning o'zaro joylashuvi haqida tasavvurlar mavjud va o'z ifodasini topgan. Harakat sharoitlari o'zgarganda qayta qurishning yengilligi, bir harakat turidan boshqasiga oson o'tish. Bir pretmet asosini boshqasiga o'sson o'tkazish, qabul qilingan ananaviy grafiklar amallar chegarasidan tashqariga chiqish, obektning o'zgartirilganda uning asosiy xususiyatlarini saqlab qolish mumkin bo'lgan bir necha vaziyatlarni ko'rish mumkin bo'lgan bir necha qobiliyatlarni ko'rish qobiliyatlari bilan karakterlanadi.

Kichik guruhda bolalar qog'oz betidagi har xil joyni bilish yuzasidan dastlabki ko'nikmalarni xosil qiladilar. Mashg'ulotlarda ularga narsalarni qog'oz betining yuqorisiga va pastiga, yuqorigi va pastki doskaga, chapga va o'ngga joylashtirish, narsalarni chapdan o'ngga qarab tartib bilan qator qilib qo'yib chiqish o'rgatiladi. Fazoviy yo'nalishlarni farq qilishda taqqoslashni aniqlash asos bo'lib xizmat qiladi. Bolalar asosiy fazoviy yo'nalishlarni farq qilish va nomini aytishni bilib olganlaridan keyin ularni ko'rsatilgan yo'nalishda harakat qilishga o'rgatiladi. Shunday qilib, fazoda mo'ljal olish, fazoviy tasavvurlarni tasavvurni shakllantirish ifodasi keng ma'noda ham, torroq ma'noda ham qo'llaniladi.

Xulosa shuki, fazoviy tasavvurni shakllantirish orqali bola shakllarni farqlay boshlaydi, fazoviy joylashuvlarni anglaydi, bolaning faraz qilish qobiliyati rivojlanadi. Fazoviy tasavvur tushunchasi real obyekt yoki model asosida u haqida sezgi organlari orqali kelib tushuvchi ma'lumotlarni tahlil qilish, idrok etish natijasida olingan bilimlar birliklari va ularning obrazlaridir. Fazoviy tasavvur haqidagi malumotlarni tushuntirish va rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarda olib borilsa bola keyinchalik fazoviy joylashuvni bilishda ham, fazoviy tahlil qilishda ham, fazoviy jismlarni ajratishda ham, fazoviy yo'nalishlarda ham qiynalmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. BMTning Bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magida yaratildi va nashr etildi. T:2018-56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori (3305-PQ, 30.09.2017).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, Toshkent sh., 2017-yil 19-iyul, 528-son.
4. <http://fayllar.org>.>mavzu –fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning vazifalari.
5. Matematik tasavvurlarni shakllantirish./o'quv qo'llanma/. Toshkent: "Innovatsiya –Ziyo", 2021, 250 b.